

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLARDAN  
FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Amanov Odiljon Karimovich

Olmaliq davlat texnika universiteti  
katta o'qituvchisi

Amanova Gulnoz Abdukayumovna

Toshkent viloyati pedagogik mahorat  
markazi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy qadriyatlar, shu o'rinda xalq og'zaki ijodining bola tarbiyasidagi o'rni va mazmun-mohiyati, undan foydalanishda tarbiyachilarning mas'uliyati ko'rsatilgan. Shuningdek, barcha qadriyatlar ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega, ular, yosh avlod ongi, dunyoqarashining shakllanishiga, ichki ruhiy dunyosining, aqliy faoliyatining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar.** Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, ertak, do'stlik, tarixiy o'tmish, mehnat tajribalari, an'analar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются реформы, реализуемые в настоящее время в системе дошкольного образования, национальные ценности, в частности роль и содержание народного устного творчества в воспитании детей, а также ответственность воспитателей за его использование. Кроме того, все ценности имеют воспитательное и образовательное значение, играют важную роль в формировании сознания и мировоззрения подрастающего поколения, развитии его внутреннего духовного мира и интеллектуальной активности.

**Ключевые слова.** Национальные ценности, обычаи, традиции, сказки, дружба, историческое прошлое, трудовой опыт, традиции.

**Abstract.** This article examines reforms currently being implemented in the preschool education system, national values, and in particular the role and content of oral folklore in children's education, as well as the responsibility of educators for its use. Furthermore, all values have educational and upbringing significance, playing a significant role in shaping the consciousness and worldview of the younger generation, developing their inner spiritual world and intellectual activity.

**Keywords:** National values, customs, traditions, fairy tales, friendship, historical past, work experience, traditions.

Maktabgacha yosh – har bir inson hayotida o'chmas, o'z-o'zini bilish asoslari shakllanishi yuz beradigan davrdir. Mazkur davrda bolaning bilish jarayoni xususiy amaliy yo'l bilan yuzaga keladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolaning keng tarqalgan faoliyatlari – o'yin, muloqot, predmetli, tasviriy faoliyat, mehnat muhim o'rin tutadi. Aynan shu faoliyatlar jarayonida bolaning aqliy taraqqiyoti, hissiyoti, mantiqiy tafakkur, o'z-o'zini nazorat qilish, ijodiy tasavvur kabilar tarkib topadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning taraqqiyoti uning olam bilan aloqasi yaxshi yo'lga qo'yilgan holdagina muvaffaqiyatli kichadi [1]. Milliy qadriyatlardan, tarixiy merosdan, moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyo qomusiy allomalarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan yoshlar tarbiyasida foydalanishga falsafiy, pedagogik,

didaktik, psixologik nuqtai nazardan e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yetakchi faylasuf olimlaridan E.Yusupov, J.To'lenov, I.Jabborov, Q.Nazarov, pedagog olimlaridan A.Zunnunov, R.Djuraev, O.Musurmonova, O'.Tolipov kabi olimlar xalq pedagogikasi yutuqlaridan hisoblangan milliy qadriyatlarni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganilishiga hissa qo'shmoqdalar. Shuning uchun ham, mazkur olimlarning asarlari ushbu tadqiqot ishida katta ahamiyatga egadir.

Faylasuf olim, akademik E.Yusupov o'zining qator asarlarida qadriyatlarining ta'rifi va xususiyatlariga to'xtalib o'tadi. U, qadriyat tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha ta'rif beradi: "Qariyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy kasb etgan moddiy, ma'naviy hodisa, jarayon bo'lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o'zi ham qadr-qimmat ma'nosini bildiradi" [7].

Olim, jamiyat taraqqiyotida insoniyat tomonidan bunyod etilgan, o'tmish va kelajakda rivojlanish uchun ijobiy ta'sir etadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, fikrlar, g'oyalarga qadriyat sifatida qaraydi. Tadqiqot ishida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, odobi, axloqiy shakllanishi, ijtimoiy tushuncha ekanligi e'tiborga olindi. Shaxsning xislatlari, fazilatlari, dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan, o'tmishda yaratilgan, kelajakda foydalaniladigan omillar yoshlarning ta'lim-tarbiyasida foydalanish lozim bo'lgan qadriyatlar deb tushunildi. Shuningdek, barcha qadriyatlar ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular, yosh avlod ongi, dunyoqarashining shakllanishiga, ichki ruhiy dunyosining, aqliy faoliyatining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina qadriyatlar jarayon xususiyatiga ega bo'lib, ushbu jarayonni amalga oshirilishida bo'lg'usi shaxs – bola ishtirok etadi, uning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi, ba'zi qoidalarini o'rganib, ongiga singdirib boradi. Bular jumlasiga an'analar, urf-odatlar, o'gitlar, nasihatlar, bayramlar yo'nalishidagi qadriyatlarni misol keltirish mumkin.

Ba'zi qadriyatlar esa, namoyon bo'lishi natijasida turli xil buyumlar, asarlar, jihozlar, qurilmalar moddiy boyliklar ko'rinishida yaratiladi hamda moddiy borliqning o'zligiga nisbatan, ushbu tasvir uzoq vaqt saqlanib qoladi. Borliq yaratilishiga sabab bo'ladigan qadriyatlar shartli ravishda moddiy qadriyatlar deb belgilandi.

Ko'p yillik kuzatishlar va olib borilgan tadqiqot natijasida, shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan tarixiy, madaniy, ma'naviy, moddiy qadriyatlar umumlashtirilib quyidagi tuzilmaga keltirishga harakat qilindi. Jarayon qadriyatlari shartli ravishda ma'naviy qadriyatlar deb, namoyon qadriyatlar esa, moddiy borliq ko'rinishidagi moddiy qadriyatlar deb belgilandi.

Qadriyatlar uchta guruhga ajratiladi. Ya'ni, **umuminsoniy** (mustaqillik, do'stlik, vatanparvarlik kabi), **mintaqaviy** (mehmondo'stlik, sahovatlilik, bolajonlik kabi) va **milliy** (*ma'naviy, moddiy*) qadriyatlarga guruhlanadi.

Tarbiyalanuvchilar *umuminsoniy* (mustaqillik, do'stlik kabi), *mintaqaviy* (mehmondo'stlik, sahovatlilik kabi) hamda *milliy* (ma'naviy, moddiy) qadriyatlar orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya olishadi. Ushbu jarayonda, ularning bir-birlariga bo'lgan hurmati, do'stligi, hamkorligi kabi insoniy fazilatlari shakllanadi.

Shuningdek, ular xalq hunarmandchiligi sohalarini o'zlashtirishi hamda ta'lim va tarbiyaning shakli, vositasi, metodlaridan unumli, samarali foydalanishi natijasida shakllangan kichik hunarmand sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar shartli ravishda ma'naviy va moddiy qadriyatlarga bo'linadi. Ma'naviy qadriyatlarga xalq ijodiy merosi, ya'ni xalq og'zaki va yozma ijodi va an'analar hamda musiqa va

teatr san'ati, moddiy qadriyatlarga esa, xalq hunarmandchiligi, tasviriy va amaliy san'at sohalari hamda tarixiy obidalar misol bo'ladi.

Xalqimizning tarixiy rivojlanish taraqqiyoti xususiyatlarini ifodalaydigan ma'naviy va moddiy qadriyatlar ko'p yillar davomida yaratilgan. Xalqning hayotiy ahvolini yoritadigan manbalar hamda moddiy borliq ko'rinishida yaratilgan jihoz, buyumlar shartli ravishda milliy qadriyatlar sifatida guruhlandi.

Xalq ijodiy merosi (xalq ijodi) – mehnatkash xalq ommasining badiiy-ijodiy faoliyati bo'lib, xalq yaratgan, xalq orasida keng tarqalgan va ajdoddan-avlodga o'tib, ommaning ijtimoiy mehnat tajribasi jarayonida shakllanib, tobora takomillashtirilib boradigan san'atdir. Xalq ijodida mehnat faoliyati, ijtimoiy-milliy hayoti, turmush tarzi, tabiat to'g'risidagi tushunchalari, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari, his-tuyg'ulari hamda tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi. Olim M.Imomnazarov fikricha, "... barcha ma'naviy boylikni xalq yaratadi. Ammo, Yevropa ilmida mumtoz (klassik) san'at va xalq ijodi (folklor) ni farqlash udum bo'lgan. ... xalq ijodi namunalari odatda turli toifalar did-farosatini charxlashga, ularning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga, ularda nazokat, nafosat tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi, dunyoni uyg'un idrok etishga yordam beradi".

Dostonlar – Sharq adabiyotiga mansub lirik, epik zamindagi ko'p qismli poetik asarlar bo'lib, xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun muhim hisoblangan mavzularga bag'ishlanadi. Uning matni she'riy yoki ertakka o'xshash ko'rinishlarda bo'lib, baxshilar, hofizlar, oqinlar tomonidan qayta ishlanishi va kuylanishi natijasida yildan-yilga sayqallanib boradi.

Dostonlarda voqea-hodisalar, qahramonlar xatti-harakatlari, xulq-atvorlari bo'rttirib ko'rsatiladi, mubolag'a va turli-tuman qilib (metafora va boshqalarda) tasvirlanadi.

O'zbek xalq dostonlaridan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Hasanxon", "Kuntug'mish", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yunus pari", "Rustamxon" va boshqalar halqning o'lmas qadriyatlariga aylangan hamda jahon madaniyati safidan muhim o'rin egallagan.

Tarbiyalanuvchilarga milliy qadriyatlarimizning noyob durdonalaridan hisoblangan xalq ijodiy merosi namunalaridagi qahramonlarning fazilatlarini komil inson ta'rifi sifatida tarbiyaviy jarayonda o'rgatilib borilishi har bir tarbiyachining muqaddas burchidir. Chunki, qahramonlar siyomosida tasvirlangan ijobiy fazilatlarni xalq o'z farzandlarida mujassam bo'lishini orzu qiladi, istaydi va shakllantirishga intiladi.

Ertak xalq og'zaki ijodining bir bo'lagi sifatida bola ruhiyatiga ilk bor o'rnatadigan badiiy asar mahsuli hamdir. Hali maktabgacha ta'lim tashkilotiga qadam qo'ymasdan oq kichkintoylar ertak haqida birmuncha tasavvur va taassurotga ega bo'lish bilan birga, besh-o'nta ertakni mukammal o'zlashtirgan bo'ladi.

Aynan mana shu egallangan bilim va ko'nikmalar bola tarbiyasidagi ilk yo'nalishni belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hayotda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash, bunda, oxir-oqibat, yaxshilikning g'alabasi ertaklarda yaqqol namoyon bo'lib, yaxshilik tomonda mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, yurtga sadoqat tuyg'ulari mujassam. «Zumrad va Qimmat», «Uch og'ayni botirlar», «Ur, to'qmoq», «Yoriltosh», «Qor malikasi», «Ayoq bobo» kabi asarlarda bosh qahramon xarakter xususiyatini ochib berish, bu orqali bolajonlarni ertak qahramonlaridek fe'l-atvorga ega bo'lishga undash tarbiyada eng dolzarb va eng sodda tushuncha: «Nima yaxshiyu, nima yomon?» g'oyasini singdirish vazifasi yotadi.

Fikrimizcha, xalq san'ati – orzular, kechinmalar va his tuyg'ularni turli harakatlarda, og'zaki vositalar yordamida (qo'shiq, ashula, raqs va musiqa asboblarida) obrazli qilib ifodalanishi. Xalq san'ati turli faoliyatlarda (askiya, qiziqchilik, masxarabozlik, ko'z boylag'ich, dor o'yini kabi) va

amaliy san'at (naqqoshlik, me'morchilik, zardo'zlik, tasviriy san'at va boshqalar) ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Har bir xalqning tarixiy o'tmishi, urf-odatlari, mehnat tajribalari, yig'inlari turli an'analar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Abdullaeva M. Topishmoq va uning bola kamolotida tutgan o'rni. – T.: «Fan va texnologiya», 2018 yil, -5-6-b.

2. Bobomirzaev X. Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi. – T.: «O'qituvchi», 1996.

3. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004.

4. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. – T.: «Fan», 1994.

5. Mirzaeva S., Azizova N. Xalq og'zaki ijodi fanidan o'quv uslubiy majmua. – Andijon: VXTXQTMOM, 2013.

6. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.